

# "Chirchiq" kimyo-industrial texnoparkida yana bir rezident o'z faoliyatini yo'lga qo'ydi

// 18 February 2025 yil

<https://pda.uzkmyosanoat.uz/oz/press/news/chirchiq-kimyo-industrial-texnoparkida-yana-bir-rezident-o-z>



Joriy yilning 18-fevral kuni "Chirchiq" kimyo-industrial texnoparkida "Kmita Polymers" korxonasi ishlab chiqarish majmuasining tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Unda "O'zkimyosanoat" AJ boshqaruvi raisining birinchi o'rinnbosari Yevgeniy Korjikov, "Chirchiq" kimyo-industrial texnoparki rahbariyati, "Kmita Polymers" korxonasi bosh direktori, ishchi-xodimlar va OAV vakillari ishtirok etishdi.



"Kmita Polymers" korxonasi Rossiya Federatsiyasining "Polymers" kompaniyasi negizida tashkil etilgan bo'lib, O'zbekistonda import o'rnni bosuvchi yangi turdag'i maxsus polimer pylonkalar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan.


Bugungi kunda loyiha doirasida 15,0 mln AQSh dollari qiymatidagi to'g'ridan-to'g'ri horijiy investitsiyalar o'zlashtirildi va dastlabki bosqichda 50 ta yangi ish o'rni yaratildi. Loyihaning navbatdagi bosqichlari ishga tushirilishi bilan ish o'rnlari soni 110 nafarga yetadi. Bu bilan mamlakatimizda maxsus polimer termousadkali cho'ziluvchan pylonka kabi bir qator yuqori qo'shilgan qiymatga yega mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.



Yangi korxona 6 ta ishlab chiqarish liniyasiga mo'ljallangan bo'lib, oyiga 1500 tonnagacha tayyor mahsulot ishlab chiqaradi. Bunda guruqli qadoqlashdan tortib, qishloq xo'jaligi, himoya va oziq-ovqat sanoatining murakkab plyonkalarigacha bo'lgan keng turdag'i mahsulotlar ishlab chiqarish rejalashtirilgan.



Korxonaning ishga tushirilishi Markaziy Osiyo mintaqasida qadoqlash sanoatini rivojlantirishiga muhim hissa qo'shadi.



**"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati**